

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 61 187,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023-yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 6,3 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 111,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hissasi 6,0 % ga yetdi.

## 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida Andijon viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023-yil	2024-yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>51 827,1</b>	<b>61 187,7</b>	<b>106,3</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	50 434,6	59 694,1	106,3
mahsulotlarga sof soliqlar	1 392,5	1 493,6	106,4
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>50 434,6</b>	<b>59 694,1</b>	<b>106,3</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>17 074,1</b>	<b>18 705,9</b>	<b>102,7</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>15 957,2</b>	<b>19 651,3</b>	<b>107,8</b>
sanoat	12 806,6	16 042,8	108,2
qurilish	3 150,6	3 608,5	106,1
<b>xizmatlar</b>	<b>17 403,3</b>	<b>21 336,9</b>	<b>108,5</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6 054,8	7 498,5	111,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 396,2	3 003,4	114,8
boshqa xizmat tarmoqlari	8 952,3	10 835,0	104,5

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 17 891,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,1 % ga yuqoridir .

## 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023-yil	2024-yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,3	97,6
mahsulotlarga sof soliqlar	2,7	2,4
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>33,9</b>	<b>31,3</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>31,6</b>	<b>32,9</b>
sanoat	25,4	26,9
qurilish	6,2	6,0
<b>xizmatlar</b>	<b>34,5</b>	<b>35,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12,0	12,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,8	5,0
boshqa xizmat tarmoqlari	17,7	18,2



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qoʻshilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,4 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining YAHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 31,3 % ni, sanoat tarmogʻi 26,9 % ni, qurilish 6,0 % ni va xizmatlar sohasi 35,8 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlariboʻyicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023-yil

2,7 %



33,9%

Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

25,4%

Sanoat

6,2%

Qurilish

34,5%

Xizmatlar

2024-yil

Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

31,3 %

Sanoat

26,9 %

Qurilish

6,0 %

Xizmatlar

35,8 %



2,4 %


● Yalpi qoʻshilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,9 f.p. (2023-yilning yanvar-sentabrda – 1,1 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,0 f.p. (2023-yilning yanvar-sentabrda – 1,6 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2023-yilning yanvar-sentabrda – 0,3 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,8 f.p. (2022-yilda – 2,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023-yilning yanvar-sentabrda – 0,3 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

## 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 102,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 31,3 %), sanoatda – 108,2 % (26,9 %), qurilishda – 106,1 % (6,0 %), xizmatlar sohasida – 108,5 % ni (35,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,9 % (12,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,8 % (5,0%), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,5 % dan (18,2 %) iborat bo'ldi.

## Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2023-y.

2024-y.



5,5 %

YAHM

6,3 %



3,3 %

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi

2,7 %



6,7 %

Sanoat

8,2 %



4,4 %

Qurilish

6,1 %



6,8 %


Xizmatlar

8,5 %



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023-yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 111,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 115,8 % va xizmatlarda – 113,0 % qayd etildi.

## Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 41 454,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida – 34 842,5 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 69,4 % ni (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida – 69,1 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bogʻliq.

## Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2023-yil

34 842,5

69,1 %

2024-yil

41 454,7

69,4 %

